

INGLIZ HIKOYALARI TARJIMASIDA YO‘L QO‘YILADIGAN XATOLAR

Matchanova Mohinur Otabek qizi

Urganch Innovation University, o‘zbek va xorijiy Filologiyasi kafedrası,
stajor-o‘qituvchisi

Otaxonova Gulasal Boboxon qizi

Urganch Innovation University, Filologiya va tillarni o‘qitish:
ingliz tili ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda talaba yoshlarimizning jahon adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlari natijasida ko‘plab chet el adabiyotlari turli tillarga tarjima qilinyapti va uni tarjima qilish jarayonida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yilyapti. Ushbu maqolada ingliz hikoyalarini o‘zbek tiliga yoki boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatolar haqida qisqacha tushuntirishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: simpatiya, kompleks, konnotatsiya, tarjima, idioma, frazeologizm, kontekst.

Annotation: Nowadays, as a result of the interest of our students in world literature, many foreign literatures are being translated into different languages, and many mistakes are being made in the process of translating them. This article provides a brief explanation of the mistakes that are made in the process of translating English stories into Uzbek or other languages.

Key words: sympathetic, complex, connotation, translation, idiom, phraseology, context

Аннотация: В настоящее время в результате интереса наших студентов к мировой литературе многие зарубежные литературы переводятся на разные языки, при этом в процессе перевода допускаются многочисленные ошибки. В этой статье есть позднее объяснение ошибок, которые допускаются в процессе перевода английских рассказов на узбекский или другие языки.

Ключевые слова: Симпатия, комплекс, коннотация, перевод, идиома, фразеология, контекст

Ingliz hikoyalarini tarjima qilish jarayonida turli xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu kamchiliklar hikoya tilini tushinarli bo‘lishiga halaqit beribgina qolmay, asosiy mazmun mohiyatni ham yo‘qqa chiqarishi mumkin. Quyida eng keng tarqalgan xatolar va ularning sabablari haqida ma’lumot berib o‘tiladi:

1. Lug‘aviy xatolar

Lug‘aviy xatolar tarjima jarayonida eng ko‘p uchraydigan kamchiliklardan biri bo‘lib, quyidagi turlarga bo‘linadi:

a. So‘zlarning noto‘g‘ri ekvivalentini tanlash

Ba‘zan tarjimon ingliz tilidagi so‘zning noto‘g‘ri sinonimini tanlaydi yoki unga mos kelmaydigan, muqobil bo‘la olmaydigan so‘zlardan foydalanadi. Misol uchun, “Sympathetic”¹ – “rahmdil degan ma’noni bildiradi, lekin ba‘zan “simpatiya” deb noto‘g‘ri tarjima qilinadi. “Complex” – “murakkab” degan ma’noni bildiradi, lekin “kompleks” deb noto‘g‘ri tarjima qilinishi mumkin.

b. So‘zma-so‘z tarjima qilish

Ba‘zi so‘z yoki iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish matnning mantiqiy bog‘liqligini buzadi. Ingliz tili turli xil iboralar, frazalar, frazali fe‘llar va shunga o‘xshash qo‘shma so‘zlarga boy bo‘lib, ularni ayrim tarjima qilish matn mazmunining buzilishiga olib keladi. “Make up one’s mind”² – “qaror qabul qilish” degani, lekin so‘zma-so‘z “o‘z fikrini yaratish” deb tarjima qilinsa, ma’no yo‘qoladi. “Time flies”³ - “vaqt tez o‘tadi” deb tarjima qilinishi kerak, lekin so‘zma-so‘z “vaqt uchadi” desak, tushunarsiz bo‘lib qoladi.

c. Ko‘p ma’noli so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatish

Ko‘p ma’noli so‘zlarning qaysi kontekstda qanday tarjima qilinishini tushunmaslik muammolarni keltirib chiqaradi. Ba‘zida shunday holatlar bo‘ladiki, biror bir so‘z o‘zi alohida qo‘llanilsa boshqa ma’no, fraza yoki qo‘shma so‘zlar tarkibida qo‘llanilsa boshqacha ma’no hosil qiladi. “Light” so‘zi “yorug‘lik”, “yengil” ma’nolariga ega. Agar “light food”⁴ iborasini “yorug‘ taom” deb tarjima qilsak, bu noto‘g‘ri tarjima hisoblanadi. To‘g‘ri tarjima – “yengil taom”.


d. So‘zlarning qo‘shimcha ma’nolarini e’tiborga olmaslik

¹ Oxford Dictionary – 2024 – feeling, showing, or expressing sympathy

² Oxford idioms dictionary – To make a firm decision after considering different options.

³ BBC Learning English - Time seems to go by very fast, especially when you are busy or enjoying yourself.

⁴ BBC Learning English - It means food that is easy to digest, not heavy or greasy, and usually low in fat and calories.



Ba'zi so'zlarning konnotatsiyasi (qo'shimcha ma'nosi) mavjud bo'lib, tarjima qilayotganda buni hisobga olish kerak. "Childish" va "childlike" so'zlari ikkalasi ham "bolalarga xos" degan ma'noni bildiradi, lekin "childish" – salbiy ohangda (nodonlik, beg'amlik), "childlike" esa ijobiy ohangda (soda, samimiy) ishlatiladi.

e.Sinonimlarni noto'g'ri tanlash

Ingliz tilida bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar ko'p, lekin ularni noto'g'ri almashtirish tarjimaning sifatsiz bo'lishiga olib keladi. "Job" va "work" ikkalasi ham "ish" degan ma'noni bildiradi, lekin "job" – aniq kasb yoki lavozimni anglatadi, "work" esa umumiy ish jarayonini bildiradi. Lug'aviy xatolarni oldini olish uchun tarjimon so'zlarning kontekstdagi ma'nosini to'g'ri tushunishi, sinonimlar va ko'p ma'noli so'zlarni yaxshi bilishi, shuningdek, so'zma-so'z tarjimadan qochishi kerak.

2. Idiomalar va frazeologizmlarni noto'g'ri tarjima qilish

Ingliz tilida ko'p uchraydigan idiomalar va iboralar bevosita tarjima qilinsa, noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Idiomalar va frazeologizmlarni noto'g'ri tarjima qilishga quyidagi asosiy xatolar kiradi:

1.So'zma-so'z tarjima qilish

Ko'pgina idiomalar va frazeologik birikmalarni bevosita tarjima qilish natijasida ularning haqiqiy ma'nosi yo'qoladi. "Break a leg"⁵ – "Omad tilayman" degani, lekin uni so'zma-so'z "Oyog'ingni sindir" deb tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi. "Hit the sack" – "Uxlash uchun yotmoq" degani, lekin so'zma-so'z "Xaltani ur" deb tarjima qilinsa, tushunarsiz bo'lib qoladi.

2.Kontekstga mos kelmagan tarjima

Ba'zan tarjimonlar idiomani to'g'ri ma'nosini bilib turib, uni noto'g'ri joyda ishlatishadi, bu esa mantiqiy xatoga olib keladi. "Spill the beans"⁶ – "Sirni oshkor qilish" degani. Agar bu iborani "loviya to'kmoq" deb tarjima qilsak, o'quvchi uni tushunmaydi. "Let the cat out of the bag"⁷ – "Sirni oshkor qilish" degan ma'noni bildiradi, lekin "Sumkadan mushuk chiqarmoq" deb tarjima qilinsa, noto'g'ri bo'ladi.


3.Idiomani to'g'ri ekvivalent bilan almashtirmaslik

Ba'zi holatlarda tarjimonlar idiomani o'zbek tilidagi ekvivalentini topmasdan, uni bevosita so'zma-so'z tarjima qilishadi. Holbuki, har bir tilning o'ziga xos ifodalari

⁵ Oxford idioms – a way to wish someone good luck, especially before a performance or important event.

⁶ Oxford idioms – to reveal a secret or tell something that was meant to be kept private.

⁷ Oxford idioms – to reveal a secret or surprise by accident.



bo‘ladi. “A piece of cake” – “Juda oson” degani, bu iborani “Bir bo‘lak tort” deb tarjima qilish noto‘g‘ri, buning o‘rniga “qo‘l uchida bajariladigan ish” kabi ekvivalent toppish kerak. “Out of the blue”⁸ – “Kutilmaganda” degani, agar “Ko‘kdan tashqari” deb tarjima qilinsa, hech qanday ma‘no chiqmaydi.

4. Frazologik birikmalarni yetarlicha tushunmaslik

Frazologik birikmalar har doim ham aniq tarjima qilinavermaydi, tarjimon ularning ma‘nosini to‘liq anglamasa, noto‘g‘ri tarjima qiladi. “Bite the bullet”⁹ – “Qiyin vaziyatga bardosh berish” degan ma‘noni anglatadi, lekin “O‘qni tishlash” deb tarjima qilinsa, tushunarsiz bo‘ladi. “Burn the midnight oil”¹⁰ – “Kechasi bilan ishlash” degani, agar “Tunda moy yoqib yoqish” deb tarjima qilinsa, asl ma‘no yo‘qoladi.

5. Tarjima jarayonida idiomani tushurib qoldirish

Ba‘zan tarjimonlar murakkab frazeologizmlarni tushunmagani yoki ularni tarjima qila olmagani sababli, matndan olib tashlashadi. Bu esa matnning umumiy mazmuniga zarar yetkazishi mumkin. Ingliz tilidagi idiomani va frazeologizmlarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon ularning haqiqiy ma‘nosini va o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini bilishi kerak. Shuningdek, har bir iboraning kontekstga mos kelishiga e‘tibor qaratish lozim.

3. Madaniy tafovutlarni hisobga olmaslik

Ingliz hikoyalarini tarjima qilishda madaniy tafovutlarni e‘tiborga olmaslik matnning tushunarsiz yoki mantiqsiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday xatolar quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Madaniy jihatdan begona tushunchalarni tushuntirmaslik


Har bir jamiyat o‘ziga xos an‘ana, urf-odat va tushunchalarga ega. Agar tarjima jarayonida ushbu madaniy jihatlar tushuntirilmasa, o‘quvchi matnni to‘g‘ri tushunmaydi. Thanksgiving Day¹¹ – AQSHda nishonlanadigan muhim bayram. Agar uni so‘zma-so‘z “Shukronalik kuni” deb tarjima qilsak, o‘quvchi uning asl mohiyatini tushunmaydi. Uni “Amerikaliklarning oilaviy minnatdorchilik bayrami” deb tushuntirish foydali bo‘lishi mumkin. Prom night – G‘arb mamlakatlarida o‘rta maktab bitiruvchilarining rasmiy

⁸ Oxford Learner’s Dictionaries – something happening unexpectedly or without warning.

⁹ Oxford Learner’s Dictionaries – to do something difficult or unpleasant that you have been avoiding.

¹⁰ Oxford Learner’s Dictionaries – to work late into the night, especially when studying or working on something important.

¹¹ Thanksgiving day is a national holiday celebrated mainly in the United States and Canada, where people give thanks for the harvest and blessings of the past year.



kechasi. Uni bevosita “prom kechasi” deb tarjima qilish tushunarsiz bo‘lishi mumkin. O‘zbek madaniyatiga moslashib, “Bitiruv kechasi” deb berish yaxshiroq.

2.Ovqat va ichimlik nomlarini bevosita tarjima qilish

Ba’zi inglizcha taom nomlarini so‘zma-so‘z tarjima qilish noto‘g‘ri tushunchaga olib keladi. “Pancake” – “Krepkalar” yoki “blinchik” deb tarjima qilish mumkin, lekin “Qozoncha keks” deb tarjima qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. “Fish and chips”- “Qovurilgan baliq va kartoshka” deb tarjima qilish kerak, lekin “Baliq va chipslar” deb berish noto‘g‘ri bo‘ladi.

3.Pul birliklarini bevosita tarjima qilish

Turli mamlakatlarning valyutalarini tarjima qilishda ularning qiymatini tushuntirish lozim. “Five dollars” – Agar “besh dollar” deb yozilsa, bu o‘zbek o‘quvchilari uchun faqat miqdorni bildiradi. Lekin “taxminan 60 000 so‘m” deb izoh berish yanada tushunarli bo‘lishi mumkin. “A penny for your thoughts” – “Sening fikrlaring uchun bir tiyinga tayyorman” deb tarjima qilish mantiqsiz, bu idiomaning ma’nosi “Sening nima o‘ylayotganingni ayt” bo‘ladi.

4.Milliy kiyimlar va an’analarini bevosita tarjima qilish

Ba’zi kiyim yoki urf-odatlar o‘zbek madaniyatida mavjud emas. “Kimono” – Agar bevosita “kimono” deb tarjima qilinsa, o‘quvchi bu kiyim turi haqida bilmasligi mumkin. Uni “Yaponcha an’anaviy kiyim” deb tushuntirish maqsadga muvofiq. “Tuxedo” – “Smokingshan” yoki “rasmiy erkaklar kostyumi” deb tushuntirilishi lozim, chunki hamma bu so‘zni bilmasligi mumkin.

Madaniy tafovutlarni hisobga olmaslik tarjimaning sifatini pasaytiradi va o‘quvchilar uchun matnni tushunarsiz qiladi. Tarjimon har bir madaniy jihatga mos keluvchi ekvivalentni topishi yoki tushuntirish berishi lozim. Bu nafaqat tarjimaning aniq va tabiiy bo‘lishiga yordam beradi, balki matnning asl ruhini saqlab qoladi.

4. Sintaktik va Grammatik xatolar

Ingliz hikoyalarini tarjima qilishda sintaktik va Grammatik xatolar matnning mantiqiyligi va tushunarligiga putur yetkazadi. Quyida eng keng tarqalgan xatolar keltirilgan:

1.Inglizcha va o‘zbekcha so‘z tartibini chalkashtirish

Ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik tuzilishi farqli bo‘lganligi uchun, tarjimonlar ba’zan inglizcha gap tuzilishini bevosita o‘zbekchaga ko‘chirib qo‘yishadi.

2.Fe’llarning zamonlarini noto‘g‘ri tarjima qilish

Ingliz tilida zamonlar tizimi murakkabroq bo'lib, ularni o'zbek tiliga noto'g'ri tarjima qilish natijasida matnning ma'nosi buzilishi mumkin.

3.Noto'g'ri zamir va olmosh ishlatish

Ingliz tilida zamirlar (pronouns) va olmoshlar aniq tartibga ega. Ular ni noto'g'ri qo'llash tushunmovchiliklarga olib keladi.

4.Artikllarni noto'g'ri qo'llash yoki tushurib qoldirish

Ingliz tilida artikllar (a, an, the) kata ahamiyatga ega. Ular ni noto'g'ri ishlatish yoki tarjimada butunlay tushirib qoldirish xatolardan biridir.

5.To'g'ri bog'lovchilarni ishlatmaslik

Ingliz tilidagi bog'lovchilar (because, although, however, since, whereas) noto'g'ri tarjima qilinsa, gaplar orasidagi mantiqiy bog'liqlik buziladi.

6.Noto'g'ri majhul nisbat (passive voice) ishlatish

Ingliz tilida majhul nisbat (Passive voice) keng qo'llanadi. Tarjima vaqtida uni noto'g'ri ishlatish tushunarsizlikka olib keladi.

7.So'zlarning noto'g'ri shaklini ishlatish

Fe'l, ot va sifatlarning noto'g'ri shakllarini ishlatish tarjimaning sifatsiz bo'lishiga olib keladi.

Sintaktik va Grammatik xatolar tarjimaning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Tarjimonlar so'z tartibi, zamonlar, majhul nisbat, artikllar va bog'lovchilarni to'g'ri qo'llashga e'tibor berishlari kerak. Shuningdek, tarjima qilingan matn tabiiy va o'qishga qulay bo'lishi muhim.


5. Badiiy uslubni yo'qotish

Ingliz hikoyalarini tarjima qilish jarayonida badiiy uslubni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Tarjimon hikoya muallifining ovozi, uslubi va hissiyotlarini yetkazmasa, asarning ta'sir kuchi pasayadi. Quyida badiiy uslubni yo'qotishga sabab bo'ladigan asosiy xatolar keltirilgan.

1.So'z va iboralarning oddiylashib ketishi

Badiiy asarlarda ishlatilgan obrazli ifodalar yoki poetic iboralarni haddan tashqari soddalashtirish natijasida hikoya o'z jozibasini yo'qotishi mumkin.

Masalan: "The moonlight danced on the waves, whispering secrets of the night" jumlasining to'g'ri tarjimasi "Oy nuri to'lqinlar ustida raqs tushib, tun sirlarini pichirlayotganday edi" shaklida bo'ladi. Lekin uni xato tarjima qilib "Oy nuri to'lqinlar



ustida edi va kechki sirlarni aytayotgan edi” deyilsa ma’no unchalik tushunarli bo‘lmaydi. Shu tarzda badiiy ifoda saqlab qoling.

2. Metafora va tashbehlarni noto‘g‘ri tarjima qilish

Metaforalar va tashbehlar badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish asarning go‘zalligini buzadi.

Misol uchun “His heart was a stone” jumlasini so‘zma-so‘z tarjima qilsak “Uning yuragi tosh edi” bo‘ladi, lekin bunday tarjima qilsak hech qanday ma’no chiqmay qoladi. Uning asl ma’nosi “U yuragi muzdek sovuq odam edi” desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yurakning toshga o‘xshatilishi – hissizlikni bildiradi, bu ma’no aniqroq ifodalandi.

3. Badiiy atmosferani yo‘qotish


Muallif yaratgan muhit va hissiyotlarni tarjima davomida yetkazmaslik matnning ta’sirini kamaytiradi. Misol uchun: “A thick fog hung over the silent town, swallowing the last flickers of light” jumlasining xato tarjimasi “Shaharga tuman tushgan edi va u oxirgi chiroqlarni yutib yubordi” shaklida bo‘lsa ko‘pchilikka tushunarsiz bo‘ladi. Agar “Qalin tuman jimjit shahar ustiga cho‘kib, oxirgi miltirayotgan chiroqlarni yutganday edi” shaklida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4. Dialoglarning jonli uslubini yo‘qotish

Badiiy asarlardagi qahramonlarning so‘zlashish uslubi ularning xarakterini aks ettiradi. Agar tarjimada bu o‘ziga xoslik yo‘qolsa, personajlar zerikarli bo‘lib qoladi. Masalan: “I ain’t got no time for this, he grumbled” iborasini so‘zma-so‘z tarjima qilsak “Men buning uchun vaqtim yo‘q, dedi u” deb tarjima qilinadi lekin bunda ma’no unchalik aniq bo‘lmaydi. Shuning uchun “Menda bu gaplarga vaqt yo‘q, deb g‘udrandi u” desak ma’no aniqroq bo‘ladi. Bu yerda “ain’t got no” iborasi qo‘pol va og‘zaki nutqqa xos. Oddiy tarjima buni yo‘qotadi, lekin “Bu gaplarga vaqt yo‘q” shaklida tarjima qilish qahramonning nutq uslubini saqlab qoladi.

5. Matnning ritmi va emosional ta’sirini yo‘qotish

Badiiy matnning ritmi va ohangdorligi ham muhimdir. Agar tarjimon iboralarni haddan tashqari o‘zgartirsa yoki cho‘zib yuborsa, bu hikoyaning hissiy ta’sirini pasaytiradi. “The wind howled through the trees, sending shivers down my spine” jumlasini xato tarjima qilsak “Shamol daraxtlar orasidan o‘tib ketdi va mening orqamdan titroq o‘tkazdi” deyiladi, lekin bu xato chunki bunday tarjimada o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Agar jumlaning “Shamol daraxtlar orasida uvillab, orqamdan titroq yugurtirdi”



desak to'g'ri bo'ladi. Bu yerda tarjimada "howled" so'zining hissiy ta'siri "uvillab" deb berilgani sababli, badiiy mazmun saqlangan.

6. She'riy va poetic ifodalarni yo'qotish

Ba'zi hikoyalarda muallif poetic til ishlatadi. Agar tarjimon buni oddiy qilib tarjima qilsa, asarning jozibasi yo'qoladi.

7. Tarjimada hissiyot va urg'uni noto'g'ri yetkazish

Badiiy hikoyalarda muallif urg'u bergan joylarni e'tiborsiz qoldirish yoki noto'g'ri talqin qilish matnning ohangini o'zgartiradi.

Badiiy uslubni yo'qotmaslik uchun tarjimon obrazli ifodalarni to'g'ri va poetic tarjima qilishi kerak. Metaforalar, tashbehlar va idiomalarni so'zma-so'z emas, badiiy ekvivalent bilan yetkazishi lozim. Matnning hissiyot, ohang va ritmini saqlab qolishi muhim. Dialoglarning jonli va tabiiy chiqishiga e'tibor berishi lozim. Agar tarjimon bu jihatlarga rioya qilmasa, asarning badiiy qiymati yo'qolib, quruq matnga aylanib qolishi mumkin.

6. Dialoglarni sun'iy tarjima qilish

Badiiy tarjimada dialoglarning tabiiy chiqishi juda muhim, chunki ular qahramonlarning xarakterini ochib beradi va hikoyaning jonli bo'lishiga yordam beradi. Agar dialoglar sun'iy tarjima qilinsa, ular o'quvchiga g'alati yoki hayotdan uzoq tuyulishi mumkin. Quyida dialoglarni sun'iy tarjima qilishga sabab bo'ladigan asosiy xatolar keltirilgan.

1. So'zma-so'z tarjima qilish

So'zma-so'z tarjima qahramon nutqining tabiiyligini buzadi va o'zbek tilida g'alati eshitiladi.

2. Og'zaki nutqning yozma nutqqa aylanishi

Haqiqiy dialoglar ko'pincha qisqaroq, sodda va jonli bo'ladi. Agar tarjimon ularni ortiqcha rasmiylashtirib yuborsa, qahramonlar g'ayritabiiy gapirayotganday tuyuladi.

3. Qahramonning nutq uslubini hisobga olmaslik

Har bir qahramonning o'ziga xos nutq uslubi bo'lishi kerak. Tarjimon ularning shaxsiyatini aks ettirmasa, dialoglar zerikarli chiqadi.

4. Noo'rin rasmiylashtirish

Ba'zan tarjimonlar dialoglarni haddan tashqari rasmiy qilib qo'yishadi, bu esa tabiiylikni yo'qotadi.

5. Tarjimada og'zaki nutq xususiyatlarini yo'qotish

Ingliz tilida og'zaki nutqda qisqartmalar, jummalarni to'liq aytmaslik kabi jihatlari mavjud. Agar tarjimon buni to'liq jummalarga aylantirib yuborsa, nutq sun'iy chiqadi.

6.Qahramonning emotsiyasini yo‘qotish

Qahramonlarning dialoglari orqali ularning hissiy holati ifodalanadi. Agar tarjima quruq bo‘lsa, bu hissiyotlar yo‘qolib ketadi. Dialoglarni sun‘iy tarjima qilmaslik uchun so‘zma-so‘z tarjimadan qochish-iboralarni mantiqan to‘g‘ri o‘g‘irish kerak. Tabiiy og‘zaki nutq uslubini saqlash-qisqa va jonli iboralar ishlatish lozim. Qahramon xarakteriga mos nutq tanlash-har bir personaj o‘ziga xos gapirishi kerak. Emotsiyani to‘g‘ri yetkazish-shunchaki tarjima qilish emas, balki hissiyotlarni aks ettirish muhim.

Xulosa: Ingliz hikoyalarini tarjima qilishda bu xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tarjimon so‘zlar va iboralar ma’nosini chuqur tushunishi, madaniy tafovutlarni hisobga olishi va badiiy uslubni saqlab qolishi lozim. Faqat shundagina sifatli va o‘quvchilar uchun tushunarli tarjima yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimada jargonni qo‘llash”¹²
2. “Badiiy asarlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning lingvistik muammolari”
3. “Yosh tarjimonlarga tarjima jarayonida kuzatiladigan xatolar haqida tavsiyalar”
4. A.Komilov “Badiiy tarjima masalalari”
5. Venuti,L. – “The Translator’s Invisibility: A History of Translation”¹³
6. J.Catford – “A Linguistic Theory of Translation”¹⁴

¹² Ф Нематова - Лингвоспектр, 2024 – lingvospekttr.uz

¹³ L Venuti – 2017 – taylorfrancis.com

¹⁴ JC Catford – 1965 – academia.edu